



## INVESTITSIYAVIY KO‘CHMAS MULKLAR MOLIYAVIY HISOBOTLARDA OCHIB BERILISHI

*Axmedjonov Abdufato*

*SAMISI, “Buxgalteriya hisobi” kafedrasida dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi.*

**Annotatsiya:** Ushbu ishda investitsiyaviy ko‘chmas mulklar haqidagi ma’lumotlarni moliyaviy hisobotlarda ochib berish (disclosure) talablari, shaffoflikni ta’minlash va foydalanuvchilar uchun axborot foydaliligini oshirish yo‘llari o‘rganiladi.

**Kalit so‘zlar:** moliyaviy hisobot, ochib berish, disclosure, shaffoflik, investitsiyaviy mulk, IFRS.

**Kirish.** Moliyaviy hisobotlarning shaffofligi investorlar va boshqa foydalanuvchilar uchun eng muhim talablardan biridir. Investitsiyaviy ko‘chmas mulklar haqidagi ma’lumotlarni to‘liq va ochiq holda ochib berish (disclosure) IFRS talablarida alohida o‘rin tutadi. Biroq, amaliyotda ushbu talablar yetarli darajada bajarilmayapti. Natijada, hisobotlarning axborot foydaliligi pasaymoqda.

Yangi O‘zbekistonda hududlarni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish, investitsiyaviy jozibadorlikni ta’minlash, xorijiy investitsiyalar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida qator ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 11 oktyabrdagi 2018 «Davlat mulki ob’ektlarini va yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni tadbirkorlik sub’ektlariga sotish tartibini soddalashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmonida ko‘chmas mulklarni xususiylashtirish, birjalarda sotish hamda ijaraga berish tartibini takomillashtirish, soliqqa solish masalalarini tartibga solish, mulkdan samarali foydalanishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari belgilab berildi. O‘zbekiston – 2030” strategiyasida “Iqtisodiyotda transformasiya va institusional islohotlarni izchil davom ettirish, mamlakatda qulay investision va



ishbilarmonlik muhitini ta'minlash" vazifasining qo'yilishi ham mavjud resurslardan oqilona foydalanishni taqozo etadi.

Xalqaro standartlarga muvofiq investitsiyaviy ko'chmas mulk (IKM) kategoriyasi alohida ajratilgan bo'lib, bunday mulklar qiymatning oshishi hisobidan hamda ijaradan daromad olishga mo'ljallangan hisoblanadi. Lekin, investitsiyaviy ko'chmas mulk tushunchasi mamlakatimizda joriy qilinmagan. Bu borada echimini kutayotgan bir qator masalalar mavjud. Jumladan: **Birinchi**dan, IKM bizning amaliyotimizga bugunga qadar qo'llanilib kelinmagan. Uni tan olish, baholash, davomiy xarajatlar, davomiy baholash, ta'mirlash, amortizasiya hisoblash, hisobotlarda aks ettirish masalalari etarli darajada yoritilmagan. **Ikkinchi**dan, IKM - bu korxonadan o'z ehtiyojlarida (ishlab chiqarish, sotish yoki ma'muriy boshqaruv) foydalanilmaydigan, u ijaraga berish (moliyaviy ijaradan tashqari) yoki qiymatining oshishi hisobidan daromad olishga mo'ljallangan ko'chmas mulk (yer, yer uchastlari, binolar, yoki ikkalasi birgalikda) bo'lib hisoblanadi. Amaliyotimizda ko'chmas mulkdan olingan daromadlarni hisobga olish masalalari bo'yicha uslubiy tavsiyalar etishmaydi. **To'rtinchi**dan, Amaliyotdagi schyotlar rejasidan kelib chiqib, IKMlar bilan bog'liq jarayonlar, jumladan ularning harakati, asosiy vositalar, zaxiralar tarkibidan qayta tasniflanganda yoki teskarisi yuz bergan schyotlarda aks ettirishning uslubiy masalalari bo'yicha ishlanmalar talab etiladi. Shu bois, IKMlarni qayta tasniflash (reklassifikasiya) natijalarini hisobda aks ettirish bo'yicha hisob siyosatida o'ziga xos uslubiy tartiblarni ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi. Bu o'z navbatida tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Investitsiyaviy ko'chmas mulkni reklassifikasiya qilish deganda, boshqa ob'ektlarni qayta tasniflashdan kelib tushishin yoki mavjud investitsiyaviy ko'chmas mulkni boshqa kategoriyadagi ob'ektlarga o'tkazish tushuniladi. Adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, chop ettirilgan ilmiy maqolalarda bizning amaliyotimiz uchun investitsiyaviy ko'chmas mulk ob'ektlari yangi tushuncha bo'lganligi va oldin amaliyotimizda ushbu kategoriya qo'llanilmaganligi bois standart tartib qoidalarni



izohlash bilan chegaralangan. Ushbu mavzudagi tadqiqotchilarning fikr va mulohazalarini quyida keltiramiz.

Investitsiyaviy ko'chmas mulklarni qayta tasniflash ko'p jihatdan mulkni adolatli yoki boshlang'ich qiymat modellari asosida baholashga bog'liq hisoblanadi. Ushbu masalaga oydinlik kiritish uchun baholash modullari o'rtasidagi farqni keltirib o'tamiz (1-jadval)

### 1-jadval

#### Investitsiyaviy ko'chmas mulkni adolatli va boshlang'ich qiymat modellari asosida baholashning farqli jihatlari

Ko'rsatkich-lar	Adolatli qiymat bo'yicha hisobga olish modeli	Boshlang'ich qiymati bo'yicha hisobga olish modeli
Boshlang'ich baholash	Haqiqiy tannarxi bo'yicha	Haqiqiy tannarxi bo'yicha
Davomiy baholash va hisob	Barcha ob'ektlar istisno holatlardan tashqari adolatli (haqqoniy) qiymati bo'yicha baholanadi	Barcha ob'ektlar boshlang'ich qiymatidan jang'arilgan amortizasiya va jang'arilgan qadrsizlanishdan zarar summasi chegirilgandan keyingi qiymatda aks ettiriladi
Adolatli (haqqoniy) qiymati o'zgarishini aks ettirish	Adolatli (haqqoniy) qiymatning o'zgarishidan foyda (zararlar) qaysi davrda yuzaga kelgan bo'lsa, o'sha davrning foyda va zararlarida, ya'ni foyda va	



	zararlar to'g'risidagi hisobotda aks ettiriladi.	
Amortizasiya	Amortizasiya hisoblanmaydi	16-son BHXS "Asosiy vositalar" standartida asosiy vositalarga belgilangan tartibda amortizasiya hisoblanadi
Istisnolar	Istisno tariqasida, agarda adolatli (haqqoniy) qiymatini belgilash imkoniyati bo'lmasa, investitsiyaviy ko'chmas mulk ob'ektini hisobga olish uchun boshlang'ich qiymat modelidan foydalaniladi, likvidasion qiymat nolga teng bo'ladi	
Qadrsizlanish	36-son BHXS'lari talabalarini qo'llanilmaydi	16-son BHXS "Asosiy vositalar" va 36-son "Aktivlarning qadrsizlanishi" standartlariga muvofiq qadrsizlanishdan zarar tan olinadi
Qo'shimcha ochiqdashlar	Istisno holatlarda, qachonki tashkilot investitsiyaviy ko'chmas mulkini 16-son BHXSlaridagi asosiy metoddan foydalangan holda aks ettiradi, adolatli qiymati bo'yicha hisobga olishning sabablariga doir	Moliyaviy hisobotda adolatli qiymat va uning qaysi sabablarga ko'ra qo'llash mumkin bo'lmagan axborotlar albatta ochiqdash kerak



	qo‘shimcha axborotlar ochiqlanadi	
--	--------------------------------------	--

S.N.Titova standart qoidalardan kelib chiqib, “qachonki ob'ekt investitsiyaviy ko‘chmas mulk ta'rifiga javob bermasa, uni boshqa taalluqli kategoriyalarga o‘tkazish kerak bo‘ladi: agarda ob'ektni o‘z maqsadlari uchun ishlatish bo‘yicha qaror qabul qilinsa, u holda investitsiyaviy ko‘chmas mulk ob'ekti asosiy vositalar tarkibiga o‘tkazilishi kerak; agarda odatdagi faoliyati davomida ob'ektni sotish to‘g‘risida qaror qabul qilinsa zaxiralar kategoriyasiga o‘tkazilishi kerak” deb ta'kidlaydi.

A.Koroleva investitsiyaviy ko‘chmas mulk reklassifikatsiyasi bo‘yicha quyidagi fikrlarni bayon qiladi: “Ob'ektning ko‘zda tutilgan maqsadida foydalanishining o‘zgarishi ob'ektni ko‘chirishga asos bo‘lib hizmat qiladi. Misol uchun:

asosiy vositalar ob'ektlarini investitsiyaviy ko‘chmas mulkka o‘tkazish mulkdor tomonidan egalik qilingan davr muddatining tugashi yoki teskari holat bo‘lganda;

zaxiralardan ob'ektni o‘tkazish boshqa tomon bilan operasion ijara bo‘yicha shartnoma tuzilgan taqdirda amalga oshiriladi. Shuni inobatga olish kerakki, zaxiralar tarkibida ko‘chmas mulk ob'ektlari hisobga olinadi, qaysiki ular sotish uchun yaratilgan yoki xarid qilingan hamda agarda bunday sotish odatdagi faoliyatidan kelib chiqadigan bo‘lsa. Kompaniya ob'ektni ijaraga topshirish boshlangandan e'tiboran investitsiyaviy ko‘chmas mulk tarkibiga o‘tkazadi;

ob'ektni sotish maqsadida rekonstruksiya boshlangan bo‘lsa zaxiralarga o‘tkazish amalga oshiriladi. Agarda korxonada ob'ektni rekonstruksiyasiz chiqarilishi



to'g'risida qaror qabul qilsa, uni tan olish tugatilgunga qadar investitsiyaviy ko'chmas mulk sifatida hisobga olinadi".

#### Xulosa

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, O'zbekiston korxonalarining moliyaviy hisobotlarida investitsiyaviy ko'chmas mulklar haqidagi ma'lumotlarni ochib berish (disclosure) darajasi yetarli emas. Ko'pgina hollarda mulklarning qiymati, baholash usuli, ijaraviy shartnomalar, qiymat o'zgarishlari va risklar to'liq yoritilmayapti. Bu esa hisobot foydalanuvchilarida (investorlar, kreditorlar, auditorlar) yetarli axborot yetishmasligiga va qaror qabul qilish jarayonining samarasizligiga olib kelmoqda.

Moliyaviy hisobotlarda ochib berish talablarini kuchaytirish, IFRS talablariga to'liq moslashish va qo'shimcha izohlar sonini oshirish orqali hisobotlarning shaffofligi va ishonchliligini sezilarli darajada yaxshilash mumkin. Bu nafaqat xorijiy investorlarni jalb qilishga, balki mamlakatning investitsiyaviy iqlimini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Rajaboev Shahboz Shodiyevich, and Raxmatov Ozodbek Aktam O'g'li. "Information Technology Is Now Used Everywhere". *Miasto Przyszłości*, vol. 44, Jan. 2024, pp. 114-21, <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/2372>.
2. Rajaboev, Shahboz Shodiyevich, and Abdunazar Burkhonovich Gaffarov. "ESSENCE OF DECISIONS ON MEASURES FOR THE DEVELOPMENT OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES." *Bulletin news in New Science Society International Scientific Journal* 2.1 (2025): 120-125.
3. Ражабоев , Ш., и П. Хамидова. «ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ



ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ». *Экономическое развитие и анализ*, т. 3, вып. 1, январь 2025 г., сс. 120-4, <https://inlibrary.uz/index.php/eitt/article/view/65480>.

4. Shodi o'g'li, Rajaboyev Shahboz. "BUXGALTERIYADA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISHI." *Лучшие интеллектуальные исследования* 60.1 (2026): 84-91.

5. Shodi o'g'li, Rajaboyev Shahboz. "ONLINE ASSESSMENT SOFTWARE IN DISTANCE LEARNING: MY TEST AND ISPRING PROGRAMS AND THEIR APPLICATION." *Лучшие интеллектуальные исследования* 59.2 (2025): 299-304.

6. Shodi o'g'li, Rajaboyev Shahboz, and SHomurodova Yasminabonu Ilkhomovna. "AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI SOHASIDAGI KORXONALAR RIVOJLANISHINI BOSHQARISH TIZIMI." *Лучшие интеллектуальные исследования* 58.6 (2025): 7-13.

7. Sh, Rajaboyev Sh, and J. I. Xabibulloyev. "KOMPYUT ER GRAFIKASI VA GRAFIK AMALLAR BILAN ISHLASHNING ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAGI O'RNI." *Экономика и социум* 12-2 (139) (2025): 578-581.

8. Sh, Rajaboyev Sh. "KORXONALARDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI XIZMATLARI BUXGALTERIYA HISOBINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." *Экономика и социум* 12-2 (139) (2025): 558-564.

9. Sh, Rajaboyev Sh, and H. E. Xolmamatova. "AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA SOHASIDA INNOVATSION XIZMATLARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARASI." *Экономика и социум* 12-2 (139) (2025): 571-577.

10. Sh, Rajaboyev Sh, and H. E. Xolmamatova. "RAQAMLI IQTISODIYOTDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING O'RNI VA AHAMIYATI." *Экономика и социум* 4-1 (131) (2025): 449-453.